

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILILAI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.13/05.05.2023.T.162.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TAJIBAYEV SHUXRAT XUDAYBERGENOVICH

**NOMINAL MA'LUMOTLAR FAZOSIDA INFORMATIV BELGILAR
MAJMUASINI TANLASH ALGORITMI VA TASHXISLASH AXBOROT
TIZIMI**

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Tajibayev Shuxrat Xudaybergenovich

Nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi va tashxislash
axborot tizimi 3

Тажибаев Шухрат Худайбергенович

Диагностическая информационная система и алгоритм выбора информативных наборов
признаков в номинальном пространстве данных 21

Tajibaev Shukhrat Khudaybergenovich

Diagnostic information system and algorithm for selecting informative sets of features in the
nominal data space 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILILAI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.13/05.05.2023.T.162.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TAJIBAYEV SHUXRAT XUDAYBERGENOVICH

**NOMINAL MA'LUMOTLAR FAZOSIDA INFORMATIV BELGILAR
MAJMUASINI TANLASH ALGORITMI VA TASHXISLASH AXBOROT
TIZIMI**

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T3874 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tatunf.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishanov Axram Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Uteuliyev Nietbay Uteulievich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Asqaraliyev Odilbek Ulug'bek o'g'li
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali huzuridagi PhD.13/05.05.2023.T.162.01. Ilmiy kengashning 2024-yil "19" oktyabr soat 1600 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi, 74-uy. Tel.: (861) 222-49-10, e-mail: tatunf@tatunf.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4 raqam bilan ro'yxatga olingan.). (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi, 74-uy. Tel.: (861) 222-49-10).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "9" oktyabr da tarqatildi.
(2024-yil "9" oktyabr dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi.)



B.T.Kaipbergenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, texnika fanlar doktori, professor

R.I.Oteniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlar doktori, professor

K.K.Seitnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tibbiyot sohasiga oid ma'lumotlarning ortib borishi kontekstida ularni tahlil qilish, informativ belgilarni ajratib olish, ma'lumotlar fani va mashinali o'qitish modellarini o'zida jamlagan axborot tizimlarini ishlab chiqish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda tibbiyot axborot tizimlari bozori hajmi birgina 2024-yilda 57,47 milliard AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda va bu ko'rsatkich 2029-yilga borib 80.43 milliard dollarga etib, ushbu davrda yillik o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 6,95% ga etishi kutilmoqda¹. Bu borada, jumladan nominal ma'lumotlardan informativ belgilarni ajratib olish algoritmlarini takomillashtirish, nominal belgilar fazosida o'zaro ta'sirlarni aniqlash, tibbiyotda tashxislash va sun'iy intellekt axborot tizimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda belgilarni tanlash tushunchasi universal hamda mashinali o'qitish va statistika sohasida fundamental sanalib, butun dunyodagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan ushbu maqsadlarga erishish uchun yangi algoritmlar, vositalar va axborot tizimlarini loyihalashtirish ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, ma'lumotlarning murakkabligi va xajmining o'sishini inobatga olib, nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarning axborot o'lchamini aniqlash jarayonlari hamda belgilar muhimligini baholash algoritmgiga asoslangan jarayonlar va tizimni axborot bilan ta'minlashning kontseptual modelini qurish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Xuddi shuningdek, ma'lumotlarning murakkabligi va hajmi o'sishi bilan dasturiy vositalar yordamida belgilarni tanlash, jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish, qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beradigan algoritmlar va axborot tizimlari yordamida tibbiyot sohasida tashxislash samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda tibbiyot sohasida axborot tizimlaridan keng fodalanish va jarayonlarini modernizatsiya qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib integratsiyalashgan tibbiyot tizimlarni loyihalashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish hamda ularni amaliyotga joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonida, jumladan «Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish»² va O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida «sun'iy intellekt, buyumlar interneti hamda raqamlashtirish texnologiyalarini joriy qilish»³ vazifalari belgilangan.

¹ <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/hospital-information-system-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli «2022 – 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097 son farmoni hamda 2023-yil 28 dekabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-415-son, 2022 yil 22 avgustdagi “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-357 son, 2021 yil 17 fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va Vazirlar mahkamasining 2023 yil 10 iyundagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 237 son qarori hamda bu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqoti ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi⁴. Mashinali o‘qitish va statistikaning muhim jihati bo‘lgan belgilarni tanlash kattaroq to‘plamdan eng informatsion xususiyatlarni (yoki o‘zgaruvchilarni) aniqlashni o‘z ichiga oladi. Nominal ma‘lumotlar uchun korrelyatsiya yoki chiziqli assotsiatsiyalarga asoslangan an‘anaviy xususiyatlarni tanlash usullari bevosita qo‘llanilmaydi. Buning o‘rniga, kategorik ma‘lumotlarga mos keladigan usullarga tayanish kerakligi kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan M.A.Ayzerman, V.V.Aleksandrov, M.B.Aydarxanov, E.M.Braverman, V.N.Vapnik, V.I.Vasilev, M.S.Vatanabe, A.L.Gorelik, R.Gonsales, R.Duda, P.M.Chegolin, Yu.I.Juravlev, N.G.Zagoruyko, A.G.Ivaxnenko G.S.Lbov, V.D.Mazurov, L.A.Rastrigin, M.I.Shlezinger va boshqalar.

Nominal ma‘lumotlar fazosida belgilarni tanlash uchun algoritm va dasturiy yechimlarni ishlab chiqish amaliy masalalarni hal qilishda O‘zbekistonning taniqli olimlari tadqiqotlar olib borgan. Bulardan: M.M.Kamilov, Sh.X.Fazilov, R.H.Hamdamiy, A.X.Nishanov, N.S.Mamatov, M.X.Xudoyberdiyev, B.B.Akbaraliyev, S.Radjabov va boshqalarni qo‘shish mumkin. Shuningdek, axborot tizimlarini boshqarish va ma‘lumotlarga intellektual ishlov berish masalalari bo‘yicha M.M.Musaev, X.N.Zaynidinov, U.R.Xamdamiy va boshqalar, korporativ axborot tizimlarida intellektual tahlillash usullari asosida ma‘lumotlarga ishlov berish, bilimlar bazasini shakllantirish masalalari bo‘yicha T.F.Bekmuratov, M.A.Raxmatullaev, A.X.Nishanov, B.B.Mo‘minov, O.J.Bobomurodov, N.O.Raximov va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.researchgate.net>, www.elsevier.com, <https://www.nxp.com>, <http://www.machinelearning.ru>, <http://www.bmstu.ru>, <https://www.msu.ru>, <https://www.bsuir.by>, <https://habr.com> va boshqa manbalar asosida shakllantirilgan.

Shu bilan birga, nominal ma'lumotlar fazosida belgilarni tanlash mashinali o'qitish modellarining samaradorligi va ishonchligini oshirish borasidagi tadqiqotlar, to'g'ri usul va vositalarni tushunish va qo'llash orqali aniq bashorat qiladigan mustahkam modellarga asoslangan axborot tizimlarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №IL-392103072 «Chorvachilik komplekslarini elektron boshqarishning mobil ilovasini yaratish» (2022-2023) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nominal ma'lumotlar fazosida ortiqcha yoki ahamiyasiz belgilarni tashlab yuborish orqali ma'lumotlarni yanada ixchamlashtirish, eng yuqori ma'lumot beruvchi belgilarni ajratib olish evaziga qaror qabul qilishga ko'maklashish va tasniflash samaradorligini oshirish algoritmlari va axborot tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma'lumotlarni samarali va aniq ifodasini ta'minlash uchun nominal ma'lumotlar to'plamidagi har bir belgining muhimligini aniqlash mezonlari, tasniflash algoritmlari va dasturiy ta'minotlarini tahlil qilish;

belgilarni axborot o'lchamini aniqlashning matematik ta'minoti va belgilar muhimligini baholash algoritmini ishlab chiqish va taklif etilgan matematik ta'minot asosida informativ belgilar majmuasini samarali tanlash imkonini beradigan algoritm, dasturiy modullar ketma-ketligini ishlab chiqish;

nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarni tanlash, qaror qabul qilishga ko'maklashish va tasniflash samaradorligini oshirish algoritmlarini ishlab chiqish;

tashxislash axborot tizimining interfeysini loyihalash va funktsional elementlarni dasturlash bosqichlari funktsional tuzilmasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nominal ma'lumotlar fazosi tadqiqi, informativ belgilarni tanlash mezonlari va algoritmlari, qaror qabul qilishga ko'maklashuvchi axborot tizimi va tasniflashga asoslangan yondashuvlar olingan.

Tadqiqotning predmeti nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash uchun ma'lumotlarni tahlil qilish usul va algoritmlari, shuningdek, ushbu usullar va algoritmlarga asoslangan diagnostika axborot tizimidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarning intellektual tahlili, timsollarni aniqlash nazariyasi, algoritmlash va modellashtirish, obyektga yo'naltirilgan dasturlashtirish, axborot jarayonlarini tavsiflash va jarayonlar modellarini qurish, axborot tizimi va ma'lumotlar bazasini loyihalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

axborot jarayonlari va axborot resurslarini tavsiflash, baholash, ma'lumotlarni samarali va aniq ifodasini ta'minlashga asoslangan nominal ma'lumotlar

to'plamidagi har bir belgining muhimligini aniqlash mezonlari, tasniflash algoritmi va dasturiy modullari ishlab chiqilgan;

belgilarning axborot o'lchamini aniqlash jarayonlari hamda belgilar muhimligini baholash algoritmiga asoslangan jarayonlar va tizimni axborot bilan ta'minlashning kontseptual modeli ishlab chiqilgan;

nominal ma'lumotlar fazosida axborot resurslarini tavsiflash, baholash hamda informativ belgilar majmuasini samarali tanlash va sinflashtirish algoritmlari asosida axborot tizimi va uning jarayonlarining tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilgan;

obyektlararo o'xshashliklarni aniqlash masalasining UML ketma-ketlik diagrammalari asosida nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarni tanlash, qaror qabul qilishga ko'maklashish va tasniflash samaradorligini oshirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma'lumotlarni samarali va aniq ifodasini ta'minlash uchun nominal ma'lumotlar to'plamidagi har bir belgining muhimligini aniqlash mezonlari, tasniflash algoritmi va dasturiy moduli ishlab chiqilgan;

nominal ma'lumotlar fazosini shakllantirishda matn, simvol va rasmlar orqali ifodalangan obyektlarning belgilarini tartiblangan nominal ma'lumotlar ko'rinishiga o'tkazish jadvali ishlab chiqildi va ushbu jadvalda belgilarning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar sohasi aniqlangan;

nominal ma'lumotlar fazosini shakllantirishda ma'lumotlar to'plamidagi har bir belgining muhimligiga ko'ra obyektlarning belgilarini tartiblangan nominal ma'lumotlar ko'rinishiga o'tkazish jadvali va uni tizimga kiritish interfeysi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Nominal belgilar fazosini tadqiq etish natijasida taklif etilgan belgilarni baholash mezonlari, informativ belgilar majmuasini tanlash usul va algoritmlari, diagnostik axborot tizimlarini qurish kontsepsiyalariga amal qilinganligi, shuningdek nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan modellar, algoritmlar, tashxislash axborot tizimlari uchun jarayonlar va tizimni axborot bilan ta'minlashning kontseptual modeli, axborotlarga ishlov berishning funktsional tuzilmasi, informativ belgilar majmuasini samarali tanlash imkonini beradigan axborot tizimi va uning jarayonlarining tashkiliy tuzilmasi axborot tizimlarning rivojiga qo'shgan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati axborot resurslarini tavsiflash, baholash, informativ belgilarni tanlash va sinflashtirish algoritmi asosida yaratilgan tashxislash axborot tizimining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi va tashxislash axborot tizimini yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

axborot jarayonlari va axborot resurslarini tavsiflash, baholash, informativ belgilarni tanlash va sinflashtirish algoritmi asosida yaratilgan tashxislash axborot tizimini Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumani tibbiyot birlashmasida

joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023 yil 13-dekabrda 01-04/11572–sonli ma‘lumotnomasi). Tadqiqotlar natijasi vaqtning 23%ga qisqartirish orqali ish samaradorligini 22%ga oshirishga imkon bergan;

timsollarni tanib olish uchun nominal ma‘lumotlar fazosi shakllantirilgan. Mazkur baza yordamida axborot jarayonlari va axborot resurslarini tavsiflash, baholash informativ belgilarni tanlash, sinflashtirish va guruhlashtirish algoritmi asosida yaratilgan tashxislash axborot tizimini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatoş tumani tibbiyot birlashmasida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023 yil 13-dekabrda 01-04/11572–sonli ma‘lumotnomasi). Har bir simptom ma‘lumotlarni ajratib berish yordamida vaqtning 19%ga qisqartirish orqali ish samaradorligini 20% ga oshirish imkoniyati yaratildi;

nominal ma‘lumotlar fazosida axborot resurslarini tavsiflash, baholash hamda informativ belgilarni tanlash va sinflashtirish algoritmi asosida yaratilgan axborot tizimini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘iroq tumani tibbiyot birlashmasida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023 yil 13-dekabrda 01-04/11572–sonli ma‘lumotnomasi). Natija vaqtning 19%ga qisqartirish orqali ish samaradorligini 18% ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy hamda amaliy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy–texnik hamda ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha asosiy natijalar 20 ta ilmiy ishlarda e‘lon qilingan bo‘lib, ulardan 9 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda, shu bilan birga 1 tasi boshqa xorijiy jurnallarda nashr qilingan hamda 5 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni qayd qilish guvohnomalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk Agentligidan olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Timsollarni tanib olishda nominal belgilar fazosini shakllantirish va tashxislash axborot tizimlari**» deb nomlangan birinchi bobida nominal ma‘lumotlar fazosida asosiy atamalar, mezonlar, ayrim amallar va algoritmlar, obyektlarning nominal belgilar bo‘yicha shakllanishi va ularning

timsolarni tanib olishdagi ahamiyati inson bilishi va muloqotida markaziy o'rini tahlil qilingan. Shuningdek, tashxislash axborot tizimi uchun nominal belgilar fazosida timsollarni tanib olish mezonlari, yaqinlik funktsiyasi, aniqroq qilib aytganda, tanlangan belgilar majmuasi o'rganilayotgan obyektning maqsadi inobatga olgan holda har tomonlama mukammal ifodalanishi bayon qilingan. Tibbiyotda tashxislash va sun'iy intellekt axborot tizimlari tahlili bo'limida, bugungi kunda sohada qo'llanilayotgan axborot tizimlarining ahamiyati tahlil qilinib, bemorlarni ro'yxatga olish axborot tizimining funktsional bloklari shakllantirilgan va kelgusida olingan natijalarni muhokamasi uchun asosiy ta'riflar va yordamchi tasdiqlar keltirilgan.


Obyektlarning nominal belgilar yordamida shakllanishi va timsollarni tanib olishdagi ahamiyati, ularni belgilar orqali ifodalash va tushunish uchun mavhum elementlar (so'zlar yoki piktogrammalardan) qanday foydalanish zarurligi bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir. Obyektlarning nominal belgilar bo'yicha shakllanishi, belgilarni til va muloqotda qo'llaniladigan so'zlar, raqamlar, piktogrammalar yoki boshqa belgilar bilan ifodalanishi tushuniladi. Nominal belgilardan foydalanganda, haqiqiy dunyodagi obyektlarga teglar yoki nomlar tayinlanadi.

Obyektlarning nominal belgilar bo'yicha shakllanishi va ularning timsolarni tanib olishdagi ahamiyatiga oid manbalarda keltirilgan yondoshuvlar, usullar va algoritmlar ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish bilan bog'liq ilmiy yondoshuvlar intellektual tahlil ilmining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Bu belgilar bizga atrofimizdagi dunyoni tasvirlash va tushunish imkonini beradi, tildan foydalanish, xotira va muammolarni hal qilishni osonlashtiradi.

Nominal ma'lumotlar uchun asosiy operatsiya tenglik sanaladi. Ikkita obyekt (ma'lumotlar nuqtalari) bir xil toifa yoki yorliqqa tegishli ekanligini tekshirish mumkin. Misol uchun, ikkita element bir xil rangga egami (masalan, qizil va ko'k) yoki bir xil turdagi (masalan, olma va apelsin) ni solishtirish mumkin. Nominal ma'lumotlar, shuningdek, kategorik ma'lumotlar sifatida ham tanilgan, turli guruhlar yoki sinflarni ifodalovchi toifalar yoki teglardan iborat. Nominal ma'lumotlar uchun asosiy operatsiya tenglik bo'lib, bu ikki toifa yoki teg bir xil yoki yo'qligini taqqoslashni anglatadi (1a-rasm). Shuningdek, nominal ma'lumotlarni tahlil qilish ko'pincha har bir toifa yoki yorliqning chastotasini hisoblashni o'z ichiga oladi va u bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi (1b-rasm)




1a-rasm. Nominal ma'lumotlar tengligini tekshirish algoritmi




1b-rasm. Nominal belgilar fazosidagi chastotalarni aniqlash algoritmi

Nominal belgilar fazosi bilan ishlashdagi yana bir muhim algoritm Xi-kvadrat testi bo'lib, odatda ikkita toifali o'zgaruvchilar o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini aniqlash uchun ishlatiladi. Ko'pincha toifalarning kuzatilgan chastota taqsimoti ikki o'zgaruvchining mustaqil ekanligi taxmini ostida kutilgan taqsimotdan farq qiladimi yoki yo'qligini baholash uchun ishlatiladi. Nominal belgilar fazosida Xi-kvadrat testini o'tkazish algoritmini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin (2-rasm).



2a-rasm. Nominal belgilar fazosida Xi-kvadrat testi algoritmi



2b-rasm. chi2_contingency funksiyasi umumiy algoritmi

Bugungi kunda sog'liqni saqlashni raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish tibbiy xizmat sifatini tubdan takomillashtirish va yaxshilash uchun ulkan salohiyatga ega bo'lgan asosiy sohalaridan biri sanaladi. So'nggi yillarda biz raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va sun'iy intellektdan sog'liqni saqlashning diagnostika va davolashdan tortib shifoxona boshqaruvi va sog'liqni saqlash tizimlarigacha bo'lgan turli sohalarida qo'llanilishi sohasida ko'plagan tadqiqotlar olib borilayotganiga guvoh bo'lyapmiz.


Sog'liqni saqlashni raqamlashtirishning asosiy jihatlaridan biri bu elektron tibbiy yozuvlar, ya'ni bemorlarni ro'yxatga olish axborot tizimini loyihalashtirish va ishlab chiqish bilan bog'liq. Ular shifokorlar va sog'liqni saqlash xodimlariga bemor ma'lumotlarini samarali saqlash va almashish imkonini beradi, bu esa aniqroq tashxis va davolanishga olib keladi. Elektron tibbiy yozuvlar, shuningdek, dorilarni qabul qilish vaqtlarini eslatish va uchrashuvlarni rejalashtirish kabi muayyan jarayonlarni ham avtomatlashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiya-laridan foydalanish sog'liqni saqlash sohasida inqilob qilmoqda. Ushbu texnolo-giyalar sog'liqni saqlashni yaxshilash, uni yanada samarali va qulay qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.


Sog'liqni saqlashda raqamlashtirish va sun'iy intellektning joriy qilinishi – ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligining ortishiga sabab bo'lib, katta hajmdagi ma'lumotlarni shifokorlarga qaraganda tezroq va aniqroq tahlil qilishga yo'l ochib beradi, bu esa kasalliklarni erta aniqlash va tashxislash uchun juda muhim faktorlardan sanaladi.

Tibbiyot axborot tizimlari bir nechta funksional bloklar, bir nechta modulardan iborat bo'lib, tizim arxitekturasini qurishda, kengaytirilishi va takomillash-tirib borilishi mumkin bo'ladi va har bir funksional blok belgilangan funksional vazifalarni aniqlashtirib olish uchun xizmat qiladi.

Axborot tizimining funksional vazifalaridan kelib chiqib, tizimning jarayon modeli quyidagicha jarayonlar ketma ketligidan iborat bo'ladi:



3a-rasm. Sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni ro'yxatga olish jarayon modeli



3b-rasm. Yordamchi xodimlarni va qo'shimcha tibbiyot xonasini belgilash qism jarayoni modeli

Bemorlarni ro'yxatga olish jarayoni uchun jarayon modellarini yaratish bir qator elementlar va belgilarni o'z ichiga oladi, ularning har biri jarayonning turli qismlarini ifodalash uchun turli maqsadlarga ega.

Ushbu elementlardan foydalanib, dastlabki ro'yxatdan o'tish, uni tasdiqlash, qabulga yozilish kabi jarayonning barcha bosqichlarini vizual tarzda aks ettiruvchi jarayon modeliga ega bo'lish mumkin.

Dissertatsiyaning «Nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmualarini tanlash algoritmlari» deb nomlangan ikkinchi bobida informativ belgilar majmuasini tanlashdagi asosiy tushunchalar va ta'riflar bayon qilingan. Bundan tashqari nominal ma'lumotli timsollarni tanib olishda informativ belgilarni tanlashning tartiblashga asoslangan algoritmi tadqiq qilingan. Shuningdek, nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarni tanlashning sinflar aro obyektarning o'xshashlik darajalarini inobatga olgan holda tanlash algoritmi ishlab chiqilgan.

Ma'lumot beruvchi belgilar to'plamini tanlash turli sohalarda, jumladan ma'lumotlarni taqdim etish, kodlash va alohida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumot beruvchi belgilar to'plami ishlatilgan belgilar yoki belgilarning ma'noni samarali yetkazishini va ma'lum bir maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi. Nominal

ma'lumotlar fazosidada informativ belgilar majmuasini tanlash ma'lumotlarni tahlil qilish va ma'lumotlarni qidirishning muhim jihati hisoblanadi, ayniqsa kategorik yoki sifatli ma'lumotlar bilan ishlashda. Shu nuqtai nazardan, belgilar to'plami nominal ma'lumotlar fazosidagi turli toifalar yoki qiymatlarni ifodalovchi belgilar yoki belgilar majmuasiga ishora qiladi.

Nominal ma'lumotlar - bu obyektlar yoki kuzatishlar o'ziga xos tartib yoki reytingga ega bo'lmagan alohida toifalarga yoki sinflarga bo'lingan kategorik ma'lumotlarning bir turi. Misollar ranglar, hayvonlar turlari yoki mahsulot turlarini o'z ichiga oladi.

Nominal ma'lumotlar toifalari bir-biridan farq qiladigan va tabiiy tartib yoki reytingga ega bo'lmagan kategorik ma'lumotlar turidir. Nominal ma'lumotlar fazosida ma'lumot beruvchi belgilar to'plamini tanlayotganda, toifalarni belgilar, belgilar yoki kodlar bilan mazmunli va ishlash oson bo'lgan tarzda ifodalashga intilinadi.

Misol uchun, hayvonlarni turli toifalarga ajratishni o'z ichiga olgan loyiha ustida ishlayotgandek tasavvur qilinadigan bo'linsa, hayvonlar turlarini ifodalovchi quyidagi nominal ma'lumotlar mavjud: Sutmizuvchilar; Qushlar; Sudralib yuruvchilar; Amfibiyalar; Baliq.

Ushbu hayvonlar toifalari uchun ma'lumot beruvchi belgilar to'plamini tanlash uchun har bir toifani ifodalashda bitta yoki bir nechta harfli kodlardan foydalanishga qaror qilinsa, u holda quyidagiga ega bo'lish mumkin: Sutmizuvchilar = "S"; Qushlar = "Q"; Sudralib yuruvchilar = "SYu"; Amfibiyalar = "A"; Baliq = "B".

Belgilar majmuasi nominal ma'lumotlar maydonidagi turli toifalarni ifodalovchi belgilar, belgilar yoki kodlar to'plamidir. Ushbu belgilar toifalarni kodlash uchun ishlatiladi, shuning uchun ularni kompyuter tizimlarida saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish mumkin.

Belgilarni o'ziga xos tartibsiz ifodalovchi nominal ma'lumotlar kesimida ma'lumot beruvchi belgilar to'plamini tanlash ma'lumotlarning ravshanligi va ma'nosini oshirishi mumkin.

Faraz qilaylik, nominal belgilar fazosida obyektlar quyidagi ko'rinishda ifodalangan $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}$ bo'lsin. Bu erda $x_{pi} - p -$ sinfning $i -$ chi obyekti deb o'qiladi. Demak, $N -$ o'lchovli nominal belgilar fazosida $x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N), i = \overline{1, m_p}; N -$ o'lchovli nominal belgili obyekt qaralgan va bu erda har bir belgi $x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N$ matnli ifodalangan. Xuddi shuningdek, $X_p, p = \overline{1, r}$ sinflarni bildirib, u m_p ta x_{p1}, \dots, x_{pm_p} obyektlardan tashkil topgan va $X_p, p = \overline{1, r}$ ni nominal fazoda o'quv tanlanma deyiladi. Umumiy o'quv tanlanmaning ko'rinishi quyidagicha bo'lib $X = \bigcup_{p=1}^r X_p$, uning obyektlari soni $M = \sum_{p=1}^r m_p$ ga teng.

Dissertatsiya ishida obyektlar orasidagi yaqinlik funktsiyasi

$$\rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } (x_{pi}^j - x_{pq}^j) = 0; \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (1)$$

ifodaga asosan x_{pi} , vektorining x_{pq} vektoriga nisbatan baholash mezoni yoki x_{pi} , vektorining x_{pq} vektori tomonidan baholanish qiymati quyidagi skalyar ko'paytma asosida hisoblanadi:

$(\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda) = \rho_{pi}^1(x_{pi}, x_{pq})\lambda^1 + \rho_{pi}^2(x_{pi}, x_{pq})\lambda^2 + \dots + \rho_{pi}^N(x_{pi}, x_{pq})\lambda^N$
 $I(\lambda, x_{pi}, X_p)$ – funktsionalni, λ vektor komponentalari kesimida, x_{pi} - obyektini X_p sinf obyektlari tomonidan baholash mezoni deb tushuniladi va

$$I(\lambda, x_{pi}, X_p) = \frac{1}{m_p - 1} \sum_{q=1}^{m_p} (\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda), i \neq q,$$

formula orqali hisoblanadi.

Hal qiluvchi qoida. Faraz qilaylik, $w=(w^1, w^2, \dots, w^N)$ yangi noma'lum nazorat obyekti berilgan bo'lsin. Keltirilgan mazkur noma'lum nazorat obyektni berilgan X_p , $p = \overline{1, r}$ sinflardan qaysi biriga ko'proq o'xshashligini quyidagi formulani hisoblash natijasida aniqlanadi.

$$\Gamma_w(w, X_p) = \sum_{i=1}^{m_p} \sum_{j=1}^N \rho^j(w, x_{pi}) \quad (2)$$

formula asosida hisoblanadi. Agar

$$\Gamma_w(w, X_p) > \Gamma_w(w, X_q), p \neq q = \overline{1, r}; p \neq q. \quad (3)$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $w=(w^1, w^2, \dots, w^N)$ obyekt X_p sinfga mansublik darajasi yuqoriligini, ya'ni X_p sinf obyektlariga o'xshashligini bildiradi.


Dissertatsiyaning uchinchi «**Nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarni tanlash axborot tizimini loyihalash**» bobida nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarni tanlash axborot tizimini loyihalash masalasi, ya'ni, axborot tizimini yaratish bosqichlari, informativ belgilar majmuasini samarali tanlash jarayonlari tashkiliy tuzilmasini loyihalash, axborot tizimining munosabatlar tuzilmasi, jarayonlar va tizimni axborot bilan ta'minlashning kontseptual modelini qurish, axborot tizimining funktsional tuzilmasi va arxitekturasini qurish tadqiq qilingan.

Axborot tizimini (AT) yaratish bosqichi O'z DSt 1986:2018⁵ ga ko'ra ushbu jarayon vaqt bo'yicha tartibga keltirilgan, o'zaro bog'langan, bajarilishi berilgan talablarga muvofiq bo'lgan ATni yaratish uchun zarur va yetarli bo'lgan ishlarning bosqichlari va etaplariga birlashtirilgan majmuani o'z ichiga oladi. Ishlab chiqilgan tashxislash axborot tizimini yaratish bir biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta bosqichlarda amalga oshirilgan (4-rasm).

Bu axborot tizimini ishlab chiqish bosqichlarining umumiy ketma-ketligidir, lekin muayyan bosqichlar va ularning tafsilotlari ishlab chiqish metodologiyasi va loyiha talablariga qarab farq qilishi mumkinligi asoslandi. Axborot tizimini qurish muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlash uchun tizimni ishlab chiqishda strukturali va tizimli yondashuvga rioya qilish muhimligi belgilab olindi. Dissertatsiya ishida oxirgi yillarda axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlar va internetning jadal rivojlanishi axborot tizimi foydalanuvchisi hisoblash muhitini sezilarli darajada

⁵ O'z DSt 1986:2018. Axborot texnologiyasi. Axborot tizimlari. Yaratish bosqichlari // O'zbekiston Respublikasining davlat standarti. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi) ning 2018 yil 8 iyundagi № 05-963-son qarori bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan.

o'zgartirganligi, ayniqsa, foydalanuvchi interfeysini WEB-brauzer stilida loyihalash, hisoblash muhitining asosiy tarkibiy qismini tashkil etuvchi WEB-muhitda ishlashini ta'minlash samarali ekanligi bayon qilingan.



4-rasm. Tashxislash axborot tizimini yaratishning foydalanish holatlari UML diagrammasi


Axborot tizimining tuzilishi – bu o‘zaro ta’sir qiluvchi va birgalikda axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va undan foydalanish uchun funktsional tizimni tashkil etuvchi komponentlar va elementlardan tashkil topadi. Axborot tizimi tuzilishining tarkibi uning maqsadlari, ko‘lami, texnologik darajasi va foydalanuvchi talablariga qarab farq qilishi mumkin. Dissertatsiya ishi doirasida yaratilgan axborot tizimi tuzilishini tashkil etadigan komponentalar ushbu yondoshuvlardan kelib chiqib belgilab olingan.

Ushbu apparat ta’minot, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazalari, tarmoqlar, foydalanuvchilar, jarayonlar va protseduralar, interfeyslar, himoya va xavfsizlik, hujjatlar va foydalanuvchi qo‘llanmalari, ishlash monitoringi va boshqaruvi komponentalarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi axborot tizimining ishlashini ta’minlaydi va belgilangan maqsad va talablar doirasida ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Bular dissertatsiya ishi doirasida loyihalashtirilgan axborot tizimi tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, axborot tizimining vazifalari kengayishiga, maqsadi va funktsionalligiga qarab qo‘shimcha komponentlar va elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

«Nominal ma’lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash» axborot tizimining tashkiliy tuzilmasini loyihalashning asosiy elementlari sifatida tizim xizmatlarini boshqarishning axborot, texnologiyalar, tuzilmalar va jarayonlarga yo‘naltirilgan “Axborot tizimini boshqarish”, “Ishlab chiqish”, “Axborot tizimi foydalanuvchilari”, “Boshqaruv va xavfsizlik”, “Foydalanuvchilar”, “Integratsiya va yangilash” kabi elementlari asosiy faktorlar sifatida olingan. Ushbu elementlardan kelib chiqib, «Nominal ma’lumotlar

fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash» tashxislash axborot tizimining tashkiliy tuzilmasi loyihalashtirilgan.




5-rasm. Axborot tizimining tashkiliy tuzilmasi

Bu erda «**Kiritish interfeysi**» tizim foydalanuvchilari ma’lumotlarni kiritishi va dastlabki to’plamlarni shakllantirish interfeysi sanaladi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra, ushbu interfes WEB oynalar ko’rinishida shakllantirilishi (ishlab chiqilishi) belgilab olingan. «**Ma’lumotlarni tayyorlash moduli**» ma’lumotlarni yig’ish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun tayyorlashga yo’naltirilgan. «**Tashxislash moduli**» informativ belgilar to’plamini tanlash vazifasini bajaradi. «**Natijalar interfeysi**» – foydalanuvchilar tahlil natijalarini olishlari mumkin bo’lgan interfeys bo’lib, tizim tashxis ma’lumotlari va axborotlarini foydalanuvchilarga yoki boshqa tizimlarga taqdim etadigan modul sifatida ishlab chiqilgan.

Axborot tizimiga talablar uchta bosqichda amalga oshirilgan – biznes talablar, foydalanuvchi talablari va funktsional talablar.


Dissertatsiya ishida “**Axborot tizimini ishlab chiqish bosqichlari**” munosabatlar tuzilmasidan kelib chiqib jarayonlar va ma’lumotlarni tahlil qilish zarurati paydo bo’ladi. Bunda, tizimda qaysi jarayonlar va ma’lumotlar ishlatilishini, ular qanday o’zaro bog’liqligini va rivojlanish jarayonida ularga qanday talablarni hisobga olish kerakligini aniqlashtirib olish zarur. Ma’lumki, nominal ma’lumotlar - raqamli, tartibsiz alohida toifalar yoki belgilarga ega bo’lgan o’zgaruvchilarni ifodalaydi. Shulardan kelib chiqib, tizim interfeysida ifodalash uchun nominal belgilarning tizimga kiritilishi, uning asosida tartiblangan sonli belgilarga o’tkazish va shular asosida tizimni axborot bilan ta’minlash kontseptual modeli qurilgan:



6-rasm. Axborot tizimini axborot bilan ta'minlashning ish jarayoni kontseptual modeli

Axborot tizimi arxitekturasini ishlab chiqishda uch bosqichli arxitektura, mikroservis arxitekturasi yoki SOA (xizmatga yo'naltirilgan ilovalar arxitekturasi) kabi turli metodologiya va freymvorklardan foydalanilgan. Axborot tizimining server qismi uchun mos dasturlash interfeysini tanlash ishlab chiqishning muhim bosqichi bo'lib, tizim talablari, loyiha maqsadlari va ishlab chiquvchilarning vakolatlari hisobga olingan.

MVC konsepsiyasiga tayangan holda axborot tizimi kengaytirilgan arxitekturasini qurish va kodni o'qishdagi murakkablikini osonlashtirish hamda uni takomillashtirib borishni yengillashtirishga erishiladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra tadqiqot maqsadi bo'lgan nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash axborot tizimi kengaytirilgan arxitekturasi shakllantirilgan.




7-rasm. Informativ belgilar majmuasini tanlash axborot tizimi kengaytirilgan arxitekturasi

Dissertatsiya ishining «Tashxislash axborot tizimi ish jarayonini loyihalash va amaliyotga tadbiri» deb nomlangan to'rtinchi bobida tashxislash axborot tizimi sinflar diagrammasini loyihalashtirish, axborot tizimi xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini tashkiliy qo'llab-quvvatlash, axborot tizimi interfeysini loyihalash va ishlab chiqish hamda tizimning tadbiri qarab chiqilgan.

Nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash tashxislash axborot tizimi kasalliklarni tashxislash sohasida qaror qabul qilishni qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan. U nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilarni tasniflash yoki bir biridan farqlashni ta'minlaydigan informativ belgilar to'plamini avtomatik shakllantirish va tanlash imkonini beradi. Sinflar diagrammasida har bir modul uchun loyihalashtirilishi zarur bo'lgan sinflar, munosabatlar, atributlar va metodlar ishlab chiqilgan. Bu tizimning tuzilishini va uning munosabatlarini tasavvur qilish imkonini beradi va bu o'z o'rnida tizimni tushunish va uning rivojlanishini soddalashtiradi.

Shuningdek, axborot xavfsizligi hodisasidagi obyektlarning o'zaro bog'lanishi axborot tizimining turli elementlari yoki komponentlari hodisa yoki xavfsizlik buzilishi sharoitida bir-biri bilan bog'liq bo'lishi qarab chiqilib, ushbu obyektlar texnik yoki texnik bo'lmagan va ularning o'zaro ta'siri hodisaning sababi yoki natijasi bo'lishi mumkinligi qarab o'tilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, har qanday axborot tizimlarining potentsial afzalliklariga qaramasdan, ularni joriy qilishda o'ziga xos murakkabliklar kelib chiqadi. Shularni hisobga olib, axborot tizimiga xujum qilinishi ehtimolligi $P(A) = P(V) * P(E) * P(M)$ formulasi orqali baholanib, hujum ehtimolligi tizimdagi zaiflik ehtimolliligiga ($P(V)$), axborot tizimidagi mavjud zaiflikdan muvaffaqiyatli foydalanilish ehtimolligi ($P(E)$) va g'araz niyatli shaxsni axborot tizimiga hujum uyushtirishga undalishi ehtimolliklariga ($P(M)$) bog'liq deb olingan.

Tashxislash axborot tizimining interfeysini loyihalash, funktsional elementlarni dasturlash va ishlab chiqish qulay, funktsional va samarali bo'lishi ta'minlash bir qator bosqichlar qarab chiqilgan.



8-rasm. Tashxislash axborot tizimining interfeysini loyihalash va funktsional elementlarni dasturlash bosqichlari funktsional tuzilmasi

Ilmiy tadqiqot doirasida erishilgan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan tavsiflash, baholash, ma'lumotlarni samarali va aniq ifodasini ta'minlash uchun nominal ma'lumotlar to'plamidagi har bir belgining muhimligini aniqlash mezoni, tasniflash algoritmi, jarayonlar va tizimni axborot bilan ta'minlashning kontseptual modeli hamda qaror qabul qilishga ko'maklashish va tasniflash samaradorligini oshirish algoritmiga asoslangan axborot tizimi amaliyotga joriy natijasida shakllantirilgan ma'lumotlar asosida tajribalar o'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi (9-rasm).

The screenshot shows a web-based interface for a patient information system. On the left, there is a sidebar menu with various navigation options. The main area displays a table with columns for patient identification and clinical data. The table contains several rows of data, including patient names, IDs, and various medical indicators.

ID	ISMI	FAK	MANZILI	YASH	YARIM	YAK						
1	Abdullayev	1234	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Shumanay tumanida	45	1980	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05
2	Abdullayev	5678	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Shumanay tumanida	35	1970	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05
3	Abdullayev	9012	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Shumanay tumanida	25	1960	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05	12.05

9-rasm. Axborot tizimi bemorlar ma'lumotlarini ko'rish interfeysi

Jumladan dissertatsiya ishi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari sog'liqni saqlash amaliyotiga ilm-fanning ijobiy natijalarini joriy etish maqsadida kasalliklarga informativ belgilari asosida tashxis qo'yish uchun ishlab chiqilgan axborot tizimi Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay, Qo'ng'iro't, Taxiato'sh tumanlari tibbiyot birlashmalarida joriy qilingan.

XULOSA

«Nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi va tashxislash axborot tizimi» mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Bemorlarni ro'yxatga olish jarayoni uchun jarayon modellarini yaratish bir qator elementlar va belgilarni o'z ichiga olishi, ularning har biri jarayonning turli qismlarini ifodalash uchun turli maqsadlarga ega ekanligi asoslandi. Natijada, nominal ma'lumotlar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi va tashxislash axborot tizimini qurishda muhim bo'lgan jihatlar aniqlab olindi.

2. Informativ belgilarni tanlash, tashxislash obyektlarini sinflashtirish va ularni baholashning dasturiy moduli ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan dasturiy modul yordamida eksperimental tajribalarni o'tkazish bosqichlari aniqlandi, klassik model masalalar yechildi va taklif etilgan algoritmlar solishtirildi, natijada taklif etilgan ushbu algoritmlar axborot tizimidan amalda foydalanish samadorlikni oshirishga xizmat qildi.

3. Bemorning shaxsiy ma'lumotlari konfidentsialligi va ma'lumotlarini himoya qilish bilan bog'liq ekanligi aniqlanib, tibbiy ma'lumotlar maxfiy saqlash va ruxsatsiz kirish va noto'g'ri foydalanishdan himoyalash masalasining muhimligi va axborot tizimini ehtimoliy hujumlardan himoyalash masalasini qarab chiqish zarurati aniqlandi.

4. Nominal ma'lumotlar uchun informativ belgilar majmuasini tanlashda noyob belgilarni tanlash, ortiqchalikni kamaytirish, noaniqlikni kamaytirish va axborot mazmunini maksimal darajada oshirish asoslandi. Belgilar to'plamining samaradorligi ma'lumotlarni mazmunli tahlil qilish va talqin qilishda yordam berishini ta'minlash uchun ma'lumot olish va entropiya kabi tushunchalar yordamida baholandi.

5. Belgilarni axborot o'lchamini aniqlashning matematik ta'minoti va belgilar muhimligini baholash algoritmiga asoslangan jarayonlar va tizimni axborot bilan ta'minlashning kontseptual modeli ishlab chiqildi.

6. Tibbiy tashxislashda qaror qabul qilishga ko'maklashuvchi axborot tizimi, uning arxitekturasi, tizim va hisoblash vositalarining funktsional tuzilmalari hamda Informativ belgilar majmuasini tanlash axborot tizimi kengaytirilgan arxitekturasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan axborot tizimi ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, baholash, sinflashtirish masalalarini echishda tizim modullari va hisoblash vositalarining birgalikda mukammal ishlashlariga imkon berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.13/05.05.2023.Т.162.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НУКУССКОМ ФИЛИАЛЕ
ТАШКЕНТСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

ТАЖИБАЕВ ШУХРАТ ХУДАЙБЕРГЕНОВИЧ

**ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ СИСТЕМА И
АЛГОРИТМ ВЫБОРА ИНФОРМАТИВНЫХ НАБОРОВ ПРИЗНАКОВ
В НОМИНАЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ ДАННЫХ**

05.01.10 – Информационные системы и процессы

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/T3874

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекский, русский, английский(резюме)) на сайте Ученого совета (www.tatunf.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: **Нишанов Ахрам Хасанович**
Доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Утеулиев Ниетбай Утеулиевич**
Доктор физико-математических наук, профессор

Аскаралиев Одилбек Улугбек ўгли
Доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация: **Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «19» октября 2024 г. в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.13/05.05.2023.T.162.01 по присуждению ученых степеней при Нукусском филиале Ташкентского университета информационных технологий. (Адрес: 230100, г. Нукус, ул. А.Досназарова, 74. Тел.: (99861) 222-49-10, e-mail: tatunf@tatunf.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный № 4). (Адрес: 230100, г. Нукус, ул. А.Досназарова, 74. Тел.: (99861) 222-49-10).

Автореферат диссертации разослан «9» октября 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 4 «9» октября 2024 года).



Б.Т.Каипбергенов
Председатель Ученого Совета по
присуждению ученых степеней доктор
технических наук, профессор

Р.И.Отениязов
Ученый секретарь Ученого совета по
присуждению ученых степеней доктор
технических наук, профессор

К.К.Сейтназаров
Председатель Научного семинара при
Ученом совете по присуждению ученых
степеней доктор технических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире, в условиях растущего объема информации, относящейся к области медицины, особое значение придается вопросам их анализа, выделения информативных признаков, разработки информационных систем, вобравших в себя модели науки о данных и машинного обучения. В настоящее время ожидается, что только в 2024 году объем рынка медицинских информационных систем составит 57,47 млрд долларов США, а к 2029 году эта цифра достигнет 80,43 млрд долларов США со средним годовым ростом 6,95% в течение этого периода¹. В этой связи особое внимание уделяется совершенствованию алгоритмов извлечения информативных символов из номинальных данных, выявлению взаимодействий в пространстве номинальных символов, диагностике в медицине и разработке информационных систем искусственного интеллекта.

Во всем мире концепция выбора символов является универсальной и фундаментальной в области машинного обучения и статистики, и исследователи и практики по всему миру проводят научные исследования по разработке новых алгоритмов, инструментов и информационных систем для достижения этих целей. В этом направлении, в том числе с учетом роста сложности и объема информации, приоритетными являются исследования процессов определения информационного размера информационных признаков в номинальном информационном пространстве, а также процессов на основе алгоритма оценки значимости знаков и построения концептуальной модели информационного обеспечения системы. Аналогичным образом, с ростом сложности и объема данных, актуальной на сегодняшний день является задача повышения эффективности диагностики в области медицины с помощью автоматизации и оптимизации процессов отбора признаков программными средствами, алгоритмов и информационных систем, позволяющих в короткие сроки обрабатывать большее количество данных.

При модернизации процессов широкого использования информационных систем в медицине в нашей республике осуществляются широкомасштабные меры по проведению исследований в направлении проектирования интегрированных медицинских систем с использованием информационно-коммуникационных технологий и внедрению их в практику.

В постановлении Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», обозначена задача, «Реализация стратегии на 2022-2026 годы повышения качества оказания медицинских услуг населению, централизации медицинских услуг, цифровизации сферы здравоохранения»², а в Стратегии инновационного

¹ <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/hospital-information-system-market>

² Указ Президента Республики Узбекистан №УП-40 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» от 28 января 2022 года

развития Республики Узбекистан поставлена задача «Внедрение технологий искусственного интеллекта, интернета вещей и цифровизации»³.

